

SWIFT XALQARO PUL O‘TKAZMASI TIZIMI VA UNING AMALIYOTDAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: PhD. **O.Xamroyev**

TDIU magistranti **S.A. G’afurov**

Annotatsiya: Ushbu maqolada SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) tizimining xalqaro moliyaviy aloqalar va to‘lovlar tizimidagi o‘rni, uning ishlash prinsiplari qolaversa O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlardagi amaliy qo‘llanilishi yoritib beriladi. Maqolada SWIFT tizimining paydo bo‘lish tarixi, xabar almashinuvi shakli (MT-xabarlar), BIC kodlari, xalqaro pul o‘tkazmalarining bosqichlari, xavfsizlik mexanizmlari va tizimning afzalliklari yoritib berilgan. Shuningdek, SWIFT tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan mintaqalardagi kiberhujumlar, hamda banklarining SWIFTdan uzilish sabablari kabi muammoli holatlar tahlil qilinib, ularning global moliya tizimiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot yakunida O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi uchun SWIFTning amaliy ahamiyati va tizimni yanada modernizatsiya qilish istiqbollari haqida xulosalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: SWIFT tizimi, xalqaro to‘lovlar, bank, BIC kodi, korrespondent bank, kiberxavfsizlik, moliya.

Abstract: This article analyzes the role of the SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) system in the international financial communications and payments system, its mechanism of operation, and its practical application in Uzbekistan and foreign countries. The article covers the history of the SWIFT system, message exchange format (MT-messages), BIC codes, stages of international money transfers, security mechanisms, and advantages of the system. Also, problematic situations such as cyberattacks in countries associated with the SWIFT system and the reasons for their banks' disconnection from SWIFT are analyzed, and their impact on the global financial system is studied. At the end of the study, conclusions are drawn about the practical importance of SWIFT for the banking system of Uzbekistan and the prospects for modernization of the system.

Keywords: SWIFT system, international payments, bank, BIC code, correspondent bank, cybersecurity, finance.

Аннотация: В данной статье анализируется роль системы SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) в системе международных финансовых коммуникаций и платежей, механизм ее функционирования и практическое применение в Узбекистане и зарубежных странах. В статье рассматриваются история создания системы SWIFT, формат обмена сообщениями (MT-сообщения), коды BIC, этапы международных денежных переводов, механизмы безопасности и преимущества системы. Также

анализируются проблемные ситуации, такие как кибератаки в странах, связанных с системой SWIFT, и причины отключения их банков от SWIFT, изучается их влияние на мировую финансовую систему. В конце исследования делаются выводы о практическом значении SWIFT для банковской системы Узбекистана и перспективах модернизации системы.

Ключевые слова: система SWIFT, международные платежи, банк, код BIC, банк-корреспондент, кибербезопасность, финансы.

Kirish

Globalizatsiya jarayonlari rivojlanib borayotgan hozirgi paytda xalqaro moliyaviy tizim va banklararo hisob-kitoblarning samarali tarzda tashkil etilishi iqtisodiy barqarorlikga erishishda muhim dastaklardan biri hisoblanadi. Har kuniga millionlab xalqaro to'lov va pul o'tkazmalari amalga oshirilayabdi. Ushbu operatsiyalarning xavfsiz, tezkor va sifatli amalga oshirilishi uchun o'z-o'rnida xalqaro standartlarga yetarlicha javob beruvchi zamonaviy tizimlar ham zarur bo'ladi va shunday tizimlardan eng samaralilarida biri bu - SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) tizimi desak mubolag'a bo'lmaydi.

SWIFT tizimi 1973-yilda Belgiyada asos solingan bo'lib [1], bugungi kunga kelib 200 dan ortiq mamlakatda 11 mingdan ortiq bank va moliya institutlarini birlashtira oldi. Bu tizimdan foydalanib banklar moliyaviy ma'lumotlarni, to'lov topshiriqlarni va boshqa tranzaksiya ma'lumotlarini yagona xalqaro standartda almasha olishga erishdilar. SWIFTning tashkil etilishi esa xalqaro to'lov tizimlarida avtomatlashtirish, shaffoflik va xavfsizlik darajasini sezilarli miqyosda oshirdi. Shu kecha-kunduzda SWIFT tizimi xalqaro savdo, investitsiyalar, eksport-import jarayonlarida va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynab kelmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi bank [7] tizimi uchun SWIFT orqali xorijim mamlakatlar bilan o'zaro to'lovlarni amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va iqtisodiyotning ochiqqligini ta'minlash muhim ahamiyatga aylanib bo'lgani hech kimga sir emas.

Maqolaning asosiy maqsadi esa — SWIFT tizimining mohiyatini, uning ishlash tamoyillarini, xalqaro pul o'tkazmalarining amalga oshirilish jarayonini hamda O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotidagi o'rnini analiz qilishdan iborat. Shuningdek, SWIFT tizimining afzal tomonlari, amaliyotdagi cheklovlari va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ham yoritilib berishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro pul o'tkazmalari davlatlar o'rtasidagi moliyaviy va iqtisodiy aloqalarning muhim qismi hisoblanadi. Adabiyotlarda xalqaro pul o'tkazmalarining nazariy asoslari va ularning amaliyoti keng yoritilgan. Xalqaro pul o'tkazmalarining rivojlanishi globalizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Globalizatsiya ta'sirida

davlatlar o'rtasida moliyaviy hamkorlik kengayib, tijorat banklari bu jarayonning muhim ishtirokchisiga aylangan. Ba'zi tadqiqotchilar, masalan, E. Altman xalqaro moliya institutlarining global iqtisodiy tizimdagi rolini tahlil qilgan. U xalqaro moliyaviy aloqalar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va kapital oqimlarining barqarorligini ta'minlash yo'llarini ko'rib chiqadi [5]. SWIFT tizimi banklar va moliyaviy institutlar o'rtasidagi pul o'tkazmalarini tezlashtirish va xavfsizlikni ta'minlashda global standart sifatida qabul qilingan. D. T. Llewellyn o'z ishida xalqaro to'lov tizimlarining ahamiyatini ko'rsatib o'tadi, u SWIFT tizimining rivojlanishi xalqaro bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lishini ta'kidlaydi [6].

Xalqaro bank amaliyotiga oid tadqiqotlarda G. Rose va D. Singh kabi olimlar SWIFT tizimining xalqaro pul o'tkazmalaridagi samaradorligini va uning auditiga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilganlar. Ular pul o'tkazmalari tizimining xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlash uchun SWIFT texnologiyasini yanada rivojlantirish kerakligini ta'kidlaydi. C. Montgomery o'z tadqiqotida xalqaro pul o'tkazmalari auditini uchun asosiy tamoyillarni belgilab bergan. Uning fikricha, xalqaro moliyaviy operatsiyalar auditini amalga oshirishda asosiy e'tibor operatsiyalarning shaffofligi, xavfsizligi va ishonchliligiga qaratilishi kerak. Shu bilan birga, audit jarayonida texnologik yutuqlardan foydalanish, xususan, avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish muhim omil hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) – bu butun dunyo bo'ylab banklar va moliya institutlari o'rtasida xavfsiz, tezkor va standartlashtirilgan ma'lumot almashinuvi uchun mo'ljallangan xalqaro tizimdir. Ushbu tizim Belgiyaning Bryussel shahrida 15 ta mamlakatdan 239 ta bank tomonidan tashkil etilgan. Dastlab SWIFT tizimi xalqaro hisob-kitoblarda telex (teleks) tizimini almashtirish maqsadida yaratilgan bo'lib, bugungi kunga kelib u global moliya infratuzilmasining ajralmas qismiga aylangan. SWIFT tizimi o'z faoliyatini 1977-yilda rasmiy ravishda boshlagan. Dastlab 500 ga yaqin moliya institutlari a'zo bo'lgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich 11 mingdan oshgan. Tizimning bosh ofisi Belgiyada tashkil etilgan bo'lib, u notijorat tashkilot sifatida o'z faoliyatini olib boradi. SWIFTning asosiy vazifasi banklar o'rtasida moliyaviy xabarlarni almashish bunga misol qilib - to'lov topshiriqlari, akkreditivlar, valyuta operatsiyalari, investitsiya va kredit operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni xavfsiz shaklda uzatishdan iborat. SWIFT tizimi orqali yuboriladigan xabarlar standart formatda, ya'ni MT (Message Type) ko'rinishida tuziladi. Masalan, MT103 [2]— bu mijozlar o'rtasidagi to'lov topshirig'ini ifodalaydi, MT202 esa banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar uchun mo'ljallangan. Har bir xabar qat'iy xalqaro standartlarga muvofiq shifrlanadi va tizim orqali uzatiladi, bu esa moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini kafolatlaydi.

SWIFT tizimida har bir bank o‘zining BIC [2] (Bank Identifier Code)

- ya’ni SWIFT kodiga ega. Ushbu kod odatda 8 yoki 11 belgidan iborat bo‘lib, quyidagi qismlarga ajraladi:

- Dastlabki 4 ta belgi — bank identifikatori;
- Keyingi 2 ta belgi — mamlakat kodi (ISO standarti bo‘yicha);
- Yana 2 ta belgi — shahar kodi;
- So‘nggi 3 ta belgi (ixtiyoriy) — bank filiali kodi.

Buni “Ipak Yo‘li” bank misolida oladigan bo‘lsal, “IPKYUZ22” kodi, “Ipak Yo‘li Bank” ning O‘zbekiston Respublikasidagi SWIFT kodi vazifasini bajaradi va kod orqali har bir xalqaro o‘tkazma to‘g‘ridan-to‘g‘ri bankka va kerakli filialga yo‘naltirilishini bildiradi. Tizimi o‘z faoliyatining dastlabki davrlaridanoq banklararo moliyaviy axborot almashinuvining ishonchli mexanizmi sifatida o‘zini namoyon qila oldi. Ayniqsa, 1980–1990-yillarda elektron hisob-kitob tizimlarining keng tarqalishi oqibatida SWIFTning dunyo miqyosida tez sur‘atlarda rivojlanishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib tizim orqali kuniga o‘rtacha 50 milliondan ortiq moliyaviy xabarlar almashiniladi.

Quyidagilar swift ning rivojlanishida asosiy tamoyillar bo‘lib xizmat qilayabdi desak bo‘ladi:

- Standartlashtirish – barcha banklar uchun yagona xabar formati va kod tizimi joriy etilgan.

- Xavfsizlik – xabarlar shifrlangan kanal orqali uzatiladi, bu ularni o‘zgartirish yoki kuzatishni imkonsiz qiladi.

- Tezkorlik – xalqaro to‘lovlar soniyalar ichida banklar o‘rtasida uzatiladi. SWIFT tizimi faqadgina banklarda emas, qolaversa brokerlik kompaniyalari, sug‘urta va investitsiya fondlari tomonidan ham keng qo‘llanilib kelinmoqda bunga sabab moliyaviy tarmoqdagi eng ishonchli aloqa platformalaridan biri sifatida tan olinganligidir.

Tizim orqali xalqaro pul o‘tkazmasi bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lib, jarayon qat’iy reglament va xavfsizlik qoidalariga asoslangandir. SWIFT tizimi to‘lovlarni bevosita amalga oshirmaydi, balki banklar o‘rtasida to‘lov haqidagi xabarlarni uzatib beradi, ya’ni bunda tizim axborot almashinuv platformasi sifatida xizmat qiladi.

1. Pul o‘tkazmasi boshlanishida (mijoz tomonidan topshiriq beriladi)

Xalqaro o‘tkazma jarayoni mijozning o‘z bankiga pul yuborish bo‘yicha topshiriq berishidan boshlaydi va mijoz o‘tkazmani amalga oshirish uchun quyidagi ma’lumotlarni taqdim etadi:

- Qabul qiluvchi shaxs (yoki kompaniya)ning to‘liq nomi;
- Qabul qiluvchi bankning nomi va manzili;
- Qabul qiluvchi bankning SWIFT/BIC [2] kodi;

- Qabul qiluvchining hisob raqami (IBAN) yoki kart
- To‘lov maqsadiga (masalan, tovar uchun to‘lov, xizmat haqi, shaxsiy o‘tkazma va h.k.) yoziladi.

Ushbu ma’lumotlarda foydalanib yuboruvchi bank mijozning topshirig‘ini tekshiradi va SWIFT tarmog‘i orqali jarayon xabar shaklida jo‘natiladi. Eng ko‘p ishlatiladigan xabar shakli bu - MT103 [2] bo‘lib, u mijozdan mijozga o‘tkazmalar uchun foydalaniladi.

2. Yuboruvchi bankning tekshiruvi va autentifikatsiyasi jarayoni

Bank to‘lovni amalga oshirishdan oldin bir necha muhim jarayonlarni bajarishi kerak bo‘ladi:

- Mijozning shaxsini va hisobidagi mablag‘ miqdorini tekshirishi;
- Pul yuvishga qarshi kurash (AML) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi (CFT) talablar bo‘yicha nazoratdan o‘tkazishi;
- Xalqaro sanksiyalar ro‘yxatini tekshirishi.

Agar keltirib o‘tilgan barcha talablar bajarilgan bo‘lsa, bank SWIFT tizimi orqali xabarni yuborishi mumkin bo‘ladi. Har bir xabar raqamli imzo bilan tasdiqlanadi va shifrlanadi, bu esa kelgusida ma’lumotlarning o‘zgartirilishini oldini oladi.

3. Vositachi ya’ni korrespondent banklar ishtiroki jarayoni

Agar yuboruvchi bank va qabul qiluvchi bank o‘rtasida to‘g‘ridan- to‘g‘ri hisob-kitob aloqasi mavjud bo‘lmagan holatda, pul o‘tkazmasi vositachi — correspondent banklar orqali amalga oshiriladi.

Misol qilib “Ipak Yo‘li” bank mijozidan Germaniyadagi “Deutsche” bankiga pul yuborilsa ammo ular o‘rtasida bevosita aloqalar mavjud bo‘lmagan taqdirda, SWIFT tizimi ushbu yo‘nalish uchun eng maqbul vositachi bankni aniqlashi kerak bo‘ladi.

Korrespondent banklar o‘rtasida hisob-kitoblar nostro va loro hisoblari orqali yuritiladi.

- Nostro hisobi – bir bankning boshqa mamlakatdagi bankdagi o‘z hisob raqami bo‘lsa;
- Loro hisob – xorijiy bankning mahalliy qabul qiluvchi bank tomonidan to‘lovni qabul qilish jarayonidir.

Qabul qiluvchi bank SWIFT tizimi orqali yuborilgan xabarni olishi bilanoq, uni avtomatik tarzda qayta ishlaydi bunda xabarlar mazmuni tekshiriladi, yuboruvchi bank identifikatsiya qilinadi va mijozning hisobiga pul mablag‘i tushirilishi mumkin boladi.

Ba’zi hollarda, mijoz “OUR”, “SHA” yoki “BEN” shartlarini tanlaydi:

- OUR – barcha xarajatlarni yuboruvchi to‘laydi;
- SHA – xarajatlar yuboruvchi va qabul qiluvchi o‘rtasida bo‘linadi;
- BEN – barcha xarajatlarni qabul qiluvchi to‘laydi.

Ammo agar to‘lov ma’lumotlarida xatolik yoki yetishmovchilik mavjud bo‘lsa, bank SWIFT orqali MT199 yoki MT999 turidagi qo‘shimcha xabar yuborish orqali, ma’lumotni aniqlashtiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda SWIFT tizimi moliyaviy infratuzilmaning asosiy bo‘g‘ini sifatida ishlatiladi. AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Singapurda u SEPA, TARGET2, Fedwire, CHAPS kabi avtomatlashtirilgan to‘lov tizimlari bilan chuqur integratsiyalashgan. Shu sababli xalqaro to‘lovlar tez, ishonchli va kam xarajat bilan amalga oshadi.

O‘zbekiston Respublikasida SWIFT tizimi 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab joriy etilgan bo‘lib. Bugungi kunda tizimdan mamlakatdagi barcha yirik banklar, xususan:

- “Ipak Yo‘li” AITB,
- “Asaka Bank”,
- “Agrobank”,
- “Milliy Bank”,
- “Kapitalbank”,
- “TengeBank” va boshqa banklar faol foydalanadilar.

SWIFT tizimi dunyo moliya tizimining eng ishonchli aloqa platformalaridan biri hisoblanadi. Biroq uning global miqyosda ishlashi, yuz minglab bank va moliya institutlarini qamrab olgani sababli, turli kiberxavf va siyosiy muammolarga duch kelgan holatlar ham kuzatilgan quyidagi jadvalda tizimning qay darajada ishalsh prinsiplari ko‘rsatilgan (1-jadval):

1-Jadval

Swift pul o‘tkazma tizimining asosiy ishlash prinsiplari

Yo‘nalish	Mazmuni
Asosiy yo‘nalishlar	SWIFT tashqi savdo, xorijiy investitsiya va shaxsiy xalqaro pul o‘tkazmalarida qo‘llaniladi.
To‘lov muddati	O‘tkazmalar odatda 1–3 ish kuni davom etadi; sabab — vositachi banklar ishtiroki.
Komissiya xarajatlari	O‘rtacha 20–40 AQSh dollari; vositachi banklar xarajatlari ham qo‘shiladi.
Texnik modernizatsiya	Markaziy bank SWIFTni milliy to‘lov tizimlari bilan integratsiya qilish va jarayonlarni raqamlashtirish ustida ishlamoqda.
Xavfsizlik	Banklar SWIFTning Customer Security Programme (CSP) talablariga qat’iy amal qiladi.
Foydalanuvchilar segmenti	Asosan yuridik shaxslar foydalanadi; jismoniy shaxslar boshqa xalqaro pul tizimlarini tanlaydi.

Quyida so‘nggi yillarda sodir bo‘lgan eng muhim muammoli vaziyatlar va ularning oqibatlari tahlil qilinadi. 2016-yil fevral oyida Bangladesh Markaziy bankining [7] SWIFT tizimiga xakerlar tomonidan kirish [3] holati sodir bo‘ldi. Firibgarlar bankning SWIFT kirish huquqiga ega foydalanuvchi identifikatorlarini o‘g‘irlab, AQShdagi Federal Rezerv tizimi orqali soxta to‘lov topshiriqlari yuborishgan.

Hujum miqyosini oladigan bo‘lsak masalan xakerlar 950 million AQSh dollari miqdoridagi soxta o‘tkazmalarni amalga oshirishga urinishgan. Ularning 81 million dollari Filippindagi “Rizal Commercial Banking Corporation” orqali muvaffaqiyatli o‘tkazilgan.

Bundan tashqari bazi bir mintaqalarning banklari swift tizimidan foydalanishida cheklovlar o‘rnatilgan buning oqibatida turli muammolarning kelib chiqishi kuzatilgan, quyida cheklov qo‘yilgan mintaqalar ko‘rsatilgan (2-jadval):

2-jadval

Swift dan uzilgan yoki cheklov qo‘yilgan mintaqalar

Mintaqa	Yil	Sanksiya sababi	Swift bo‘yicha choralar	Natijasi
Eron	2012 / 2018	Yadro dasturi, AQSh sanksiyalari	30+ bank SWIFTdan uzildi	Eksport tushdi, inflyatsiya 40% gacha oshdi
Rossiya	2022	Ukraina urushi	7 yirik bank tizimdan chiqarildi	Savdo pasaydi, rubl qadrsizlandi
Shimoliy Koreya	2017	Yadro sinovlari	SWIFTga kirish to‘liq taqiqlangan	Tashqi savdo 90% ga kamaygan
Belarus	2022	Rossiyaga yordam	Ba‘zi banklar SWIFTdan uzildi	To‘lovlar kechikmoqda
Sudan	1993–2017	Terrorizmni qo‘llab-quvvatlash	SWIFT kirishi to‘ildi	Savdo 24 yil davomida cheklangan
Suriya	2011	Ichki urush	SWIFT orqali to‘lovlar to‘xtatilgan	Import yetishmasligi, inflyatsiya o‘sdi
Kuba	1960-yildan beri	AQSh sanksiyalari	SWIFTda faoliyat cheklangan	Xalqaro to‘lovlar juda sekin

Bu jadvalda turli davlatlarning SWIFT tizimidan uzilishi yoki cheklovlariga duch kelishi va ularning iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatganini ko'rish mumkin. Eron, Rossiya, Shimoliy Koreya, Belarus, Sudan, Suriya va Kuba misolida shuni aytish mumkinki, SWIFTdan uzilish eksport va tashqi savdoning kamayishi, inflyatsiyaning oshishi hamda xalqaro to'lovlarning sekinlashishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Demak, SWIFT tizimiga kirish imkoniyatining yo'qolishi mamlakatning global moliyaviy tizimdagi o'rnini zaiflashtiradi va iqtisodiy izolyatsiyani kuchaytiradi.

Bu cheklovlarning o'rnatilishi natijasida ular o'zlariga swift tizimining o'znini bosuvchi alternativni ishlab chiqishga erishdilar va bu alternativlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (3-jadval):

3-jadval

Swiftga muqobil milliy va mintaqaviy tizimlar

Mintaqa	Tizim nomi	Ishga Tushgan yil	Asosiy maqsad	Xususiyatlari
Rossiya	SPFS	2014	SWIFT o'rnini bosish	400+ bank, MDH bilan ishlaydi
Xitoy	CIPS	2015	Yuan to'lovlarini tezlashtirish	1300+ ishtirokchi, 100+ davlat
Hindiston	SFMS	2001	Ichki to'lov xabar almashinuvi	RBI nazoratida, INFINET asosida
Eron	SEPAM	2013	Ichki to'lovlar uchun	Davlat banklari orqali ishlaydi
Yevropa Ittifoqi	INSTEX	2019	Eron bilan savdo SWIFTsiz	Tibbiyot va oziq-ovqat sohasida
Turkiya	TROY	2016	Visa/MasterCardga muqobil	Ichki kartalar to'lov tizimi
BRICS	BRICS Pay	2023	BRICS ichida to'lovlar	Raqamli to'lov tizimi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, SWIFT tizimiga muqobil sifatida turli mamlakatlar o‘z milliy va mintaqaviy to‘lov tizimlarini joriy etgan. Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya va Yevropa Ittifoqi singari davlatlar bu tizimlar orqali xalqaro sanksiyalar ta’sirini kamaytirish, ichki va tashqi to‘lovlarni mustaqil tarzda amalga oshirishni maqsad qilgan. Ayniqsa, BRICS Pay tizimi global darajada raqamli to‘lovlar uchun yangi istiqbolli platforma sifatida ishlaymoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, SWIFT tizimi bugungi kunga kelib xalqaro moliya tizimining ajralmas va strategik jihatdan muhim bo‘lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. U banklar, investitsiya kompaniyalari va moliyaviy institutlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvini tez, xavfsiz va yagona standart asosida tashkil etish imkonini beradi. SWIFT nafaqat xalqaro to‘lovlarda qolaversa global iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, SWIFT tizimi mamlakat bank sektorining xalqaro moliyaviy integratsiyasini chuqurlashtirmoqda. Mahalliy tijorat banklari SWIFT orqali tashqi savdo, investitsiya va pul o‘tkazmalarini amalga oshirishda faol foydalanmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank va tijorat banklari tizimni modernizatsiya qilish, to‘lovlarni tezlashtirish hamda raqamli bank xizmatlariga integratsiya qilish yo‘nalishida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Kelgusida O‘zbekiston Respublikasi uchun asosiy ustuvor yo‘nalishlar — SWIFT tizimining texnologik integratsiyasini kengaytirish, xavfsizlik siyosatini yanada mustahkamlash, hamda global “SWIFT gpi” texnologiyasiga to‘liq o‘tishdan iborat bo‘ladi. Bu esa mamlakat bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro moliyaviy operatsiyalarni yanada shaffof va samarali qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. SWIFT Annual Report. – Belgium: SWIFT SCRL, 2023.
2. Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication (SWIFT) – Rasmiy veb-sayt: <https://www.swift.com>
3. The Financial Times. – “Bangladesh Bank cyber heist: how hackers stole \$81m via SWIFT”, 2016.
4. Reuters. – “Latin American banks hit by SWIFT-related cyber attacks”, 2018.
5. European Central Bank. – “The Role of SWIFT in International Settlements and the Impact of Sanctions”, Frankfurt, 2022.
6. Bloomberg. – “Russia’s Disconnect from SWIFT: Global Financial Impact”, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. – “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining xalqaro to‘lov tizimlariga integratsiyasi” axborot hisobotlari. – Toshkent, 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-noyabrdagi

“Bank tizimini raqamlashtirish va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

9. Karimov A. Xalqaro to‘lov tizimlari va banklararo hisob-kitob mexanizmlari. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
10. Jalilov B., Tursunov X. Xalqaro bank operatsiyalari va moliyaviy infratuzilma. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.
11. Central Bank of Uzbekistan. – Financial Stability Report, 2023.
12. World Bank. – Payment Systems Worldwide: A Global Overview, Washington, 2022.
13. OECD. – Cross-Border Financial Transactions and Security Standards, Paris, 2021.
14. SWIFT gpi Initiative – Global Payments Innovation Programme, Brussels, 2021.